

QADIMGI HINDISTON DAVLATCHILIGINING VUJUDGA KELISHI TARIXIDAN

Biykuziyev Asxat, O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, (PhD)

ИЗ ИСТОРИИ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОСТИ ДРЕВНЕЙ ИНДИИ

*Бийкузиев Асхат, доцент Национального университета
Узбекистана (PhD)*

FROM THE HISTORY OF THE EMERGENCE OF ANCIENT INDIAN STATEHOOD

*Askhat Biykuziyev, Associate Professor at the National University
of Uzbekistan (PhD)*



<https://orcid.org/0000-0003-0076-5289>

e-mail: biy1982@bk.ru

Annotatsiya: Jahonda Hindistondagi qadimiy davlatchilik va shaharsozlik an'analari, mintaqada kechgan migratsiya jarayonlari va ularning o'lka xalqlari hayotiga ta'siriga oid qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur maqolada shular haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya, Hind davlati, sanskrit tili, Markaziy Osiyo, Ramayana.

Abstract: A number of studies are being conducted in the world on the ancient traditions of statehood and urban planning in India, migration processes in the region, and their influence on the lives of the peoples of the region. This article discusses these matters.

Keywords: civilization, Indian state, Sanskrit language, Central Asia, Ramayana.

Аннотация: В мире проводится ряд исследований по древним государственным и градостроительным традициям Индии, миграционным процессам в регионе и их влиянию на жизнь народов региона. В данной статье обсуждаются эти вопросы.

Ключевые слова: цивилизация, Индийское государство, санскритский язык, Центральная Азия, Рамаяна.

KIRISH. XX asrga qadar qadimgi Hindiston tarixi arxeologlar va tarixchilar tomonidan kam o'rganilgan bo'lib, ilk bor 1911-yil hindistonlik arxeolog Rakxal Banerji mamlakat arxeologiyasini o'rganishga kirishgan. Rakxal Banerjidan tashqari, qadimgi hind shahar-davlatlari tarixi Kashinat Narayyan Dikshit, Djon Marshall, Mortimer Uiler va Ahmad Hasan Dani kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Qadimgi umuminsoniy sivilizatsiyalarning asosiy markazlari qadimgi Misr, Finikiya, Mesopotamiya, Eron va Xitoy deb ishonilgan. Qadimgi Hindiston tarixi jahon tarixining jabhalaridan biri hisoblanadi. Yevropada Hindiston tarixiga qiziqish, Genrix Rot va Uilyam Jonsning

hind-yevropa tillarining bir-birlariga yaqinligi haqidagi nazariya ham Berlin universiteti professori Frans Boppni qiziqtirgan. Natijada Veda "sanskrit" tili bu oilaning eng qadimgi hind-yevropa xalqlarining ajdodlari vatani, degan nazariyani vujudga keltirgan. Yangi davrning oxirlarida Yevropa mamlakatlari o'z o'tmishini o'rganishga, ajdodlari tarixini bilishga harakat qilishgan. Hindistonda qadimgi Xarappa sivilizatsiyasi izlarini birinchi bo'lib tadqiq etgan ingliz arxeologi Jeysms Breastning topilmalari tufayli qadimgi Hindiston tarixiga yondashuv o'zgardi. Natijada, Hindiston sivilizatsiyasining qadimiyligi Mesopotamiyanikidan kam rivojlangan emasligi

ayon bo'ldi. Unumdor Hind vodiysi, qulay iqlimi, katta konlari, mehnat qurollari, materiallar ishlab chiqarish uchun xom ashyo bilan ta'minlanganligi insoniyatning qadimgi sivilizatsiyasining beshiklaridan biriga aylanishiga yordam bergan.

TADQIQOT USULLARI VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Maqolani yozishda asosiy metodologik yondashuvlar sifatida obyektiv-tarixiy, tarixiy-qiyosiy va mantiqiy yondashuvlardan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI. Afsuski, qadimgi Hindiston tarixining dastlabki sahifalari haqida to'liq so'z yurita olmaymiz, chunki o'sha davrdan beri bizgacha hech qanday yozma manbalar yetib kelmagan. Qadimgi dravidlar (hindlar) kun kechirgan hayotini baholashning yagona yo'li arxeologik topilmalarga bog'liq edi. Shu sababli, biz qadimgi Hindiston tarixini, dravidlarning turmush tarzi, iqtisodiyoti haqida ko'p ma'lumotga ega emasmiz. Masalan, qadimgi Hindistonni dastlab qaysi podsholar boshqargan, qanday qonunlar bor edi, dastlabki oriy maxajanapadalar olib borgan urushlar haqida kam tasavvurga egamiz.

Qadimgi Hindistonning azim Hind daryosining unumdor vodiylari, qulay iqlimi, kremniyning katta konlari, materiallar ishlab chiqarish uchun xom ashyo bilan ta'minlanganligi, bularning barchasi bu yerlar tez orada insoniyatning qadimgi sivilizatsiyasining birinchi beshiklaridan biriga aylanishiga yordam berdi.

Yuqori kastalar kohin (braxman) va harbiy(kshatriy)lar birlashtirilganda, davlat elitasining paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada soliq ulushining qishloq xo'jaligi mahsulotidan muntazam ajratmalari maxsus tartibi shakllandi. Davlat o'lponlari aynan braxmanlar va kshatriyalarni saqlash uchun to'langan. Doimiy soliqlar o'sib bordi va oxir-oqibat oddiy jamoachi ziroatkor dehqonlarni davlat ekspluatatsiyasining o'ziga xos shakliga aylandi.

Shimoldan kelgan oriylar, tub joy qabilalarini bo'ysindirish jarayonlari natijasida shudralar varnasining shakllanishiga zamin yaratishdi. Ammo, oriy jamiyatida ijtimoiy tengsizlikning rivojlanishi bir xil kechmagan. Shudralar tabaqasi nafaqat mahalliy aholi, balki oriylarning eng qashshoq qismi

vakillari hisobidan ham to'ldirildi. Qadimgi Hindiston jamiyatida, qarz evaziga qullikka tushib qolgan insonlar ham bo'lgan.

Shu bilan birga Man-u qonunlarida (yoki "Man-u-smritiy" – umumiy 12 bob va 2685 qonun shaklidagi she'riy matnlar) qullarning yetti xil toifasini ajratib beradi[1]. Ya'ni urushlarda asirga olingan, xonadon quli, uyda tug'ilgan, sotib olingan, sovg'a qilingan, meros sifatida o'tgan va jinoyat uchun jazolanib qulga aylangan insonlar haqida bu qonunning 8-bob, 415-moddasida qayd etilgan. Xo'jayinga qulning hayot tarzini boshqarish huquqi qadimgi Hindistonda umume'tirof etilgan. Qullar qonun bo'yicha muomalaga layoqatsiz hisoblanib, u tomonidan tuzilgan bitim va shartnomalar haqiqiy emas deb topilar edi. Qullar sotilgan va garovga qo'yilgan, ular uchun narxining 20%iga teng boj ham to'lanagan. Qulning bolalari va nevarachevaralari xo'jayin hamda uning avlodlarining mulki hisoblangan.

Daxrmashastralarda (Dxarmadagi o'gitlar) ba'zi hollarda qullar va shudralar o'rtasida, qullar va xizmatdagi shaxslar o'rtasida farqlar mavjud, boshqalarida bu farqlar mavjud emas edi[2]. Man-u qonunlaridagi "dasa" so'zi esa bir vaqtning o'zida qulni ham, xizmatkorni ham bildirgan. Bu qadimgi Hindistonda qullik qaramlik shakllaridan biri bo'lganligi bilan bog'liq edi.

Janubiy Bixarlik kichik qabila sardorining o'g'li Bimbisara (mil.avv.543-491-y) Magadxa davlatini yuksaltirdi. U diplomatik nikohlar va qo'shni davlatlarga qarshi harbiy yurishlar uyushtirib mamlakat hududini kengaytirishga muvaffaq bo'ldi. U Anga (G'arbiy Bengaliya) davlatini Magadxaning tarkibiga kiritdi. Buddaviylikni qo'llab-quvvatladi[4]. Garchand Bimbisara davlatni yuksaltirgan bo'lsa-da, umrining oxirida o'z o'g'li Ajatashatra tomonidan o'ldiriladi. Ajatashatra qadimgi Hindiston maxajanapadaliklari orasida katta nufuzga erishadi.

Asli Kapilavastulik bo'lgan shakyamunni Siddxarta Gautama umrining katta qismini Magadxa davlatida o'tkazgan va riyozat chekkan. Buddha Bodx Gayada ma'rifatga erishdi. Dastlabki da'vatini esa Sarnatda amalga oshiradi. Ilk buddistlar kengashi Rajgirda mil.avv.498-yil Magadxa podshosi

Ajatashatra homiyligida o'tkazilgan. Buddizm mafkurasining butun Hindistonga tarqalishiga ilk qadamlar aynan Magadxadan boshlangan.

Ganganing quyi va o'rta oqimida erishilgan siyosiy ustunlik Ajatashatraga kam edi. U Gang daryosining shimolidagi yerlarni egallab olmoqchi bo'ldi. Shu maqsadda Lichavi (hozirgi Nepal hududi) davlati bilan urush olib bordi. Ikki podsholik o'rtasidagi gegemoniya uchun kurash uzoq davom etdi.

Xariyankalar sulolasi mil.avv.413-yil ag'darilib, saroy amaldori Shayshunaga hokimiyatga keladi. Manbalarda ta'kidlanishicha Xariyankalar sulolasini adolatsiz siyosat yurgizganlari uchun Magatxa davlatining aholisi hokimiyatdan tushirgan[5]. Shayshunaga Lichxavi qavmidan bo'lib, oddiy amaldorlikdan Varanasi shahrida vazirlik darajasiga ko'tarilgan. Uning davrida Ganga daryosi qirg'oqlaridagi katta hududlar markaziy hokimiyatga bo'ysundi. Mamlakat poytaxtini Pataliputra shahridan Vayshaliga ko'chiradi. Eski poytaxt zodagonlariga ishonmaganligi tufayli yangi elitani tuzishga uringan. Ammo, mil.avv.395-yil podsho Shayshunaga vafotidan keyin hokimiyatga kelgan uning o'g'li Kalashoka davlat markazini yana Pataliputra (hozirgi Patna)ga ko'chiradi.

Mil.avv.345-yilga qadar Shayshunagalar sulolasidan bo'lgan Kalashoka hokimiyatda bo'lgan. So'ngra Hindiston tarixida kamdan kam sodir bo'ladigan hodisa yuz beradi. Ya'ni kelib chiqishi kshatriylardan bo'lmagan Maxapadma Nanda (mil.avv. 367-329-yy.) Magatxa taxtini egallaydi. Ayrim manbalarda uning hindistonlik bo'lmaganligi ta'kidlanadi[6]. Ammo hind olimlari Maxapadma Nandani "shudra"lar toifasidan ekanligini, otasi sartarosh, onasi esa yengiltabiyatli ayol bo'lganligini e'tirof etadilar. Uning hokimiyatga kelishiga uddaburonligi va diplomatik qobiliyati sababchi bo'lgan.

Ahamoniylar imperiyasi davrida Qadimgi Hindistonning chegaralari shimolda Baqtriyaga borib taqalishi yunon tarixchilari Arrian va Ktesiylar tomonidan e'tirof etiladi[7]. Yunon muarrixlari sug'diylarni ham baqtriyaliklar qatoriga qo'shib

yuborishadi. Baqtriya esa g'arbda Midiya davlatining madaniy ta'sirida edi. Midiyaning chegaralari esa Mesopotamiyaning sharqiy cho'lliklaridan boshlanadi[8]. Hindistonning janubiy chegaralari Hind okeaniga chiqqan. Hatto "Ramayana" dostonida ham janubiy chegara Shri-Lanka[9] oroliga qadarligi ta'kidlangan. Keyinchalik qadimgi yunon manbalarida mamlakatning shimoliy chegaralari Hindikush tog'laridan boshlanishi tilga olingan[10]. Ammo Hindikush Kavkaz tog'lari sifatida e'tirof etiladi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Qadimgi Hindistonning geografik chegaralari uning madaniy ta'sir doirasi bilan uyg'unlashib ketgan edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Законы Ману. Перев. Ильин.Г.Ф. Москва. – 1992. С. 102.
2. Kane P.V. History of Dharmasastra. - Vol. I.- Poona, 1930. - P. 197.
3. Raychaudhuri H. Political History of Ancient India, University of Calcutta, - Calcutta, 1972. P. 85.
4. Комиссаров С.А. Жизнь Будды. – Москва. 2016. - С 60-61.
5. Singh U.A History of Ancient and Early Medieval India: From the Stone Age to the 12th Century. — New Delhi. Pearson Education, 2016. P. 626.
6. Ерохин Б.Р. История буддизма в Индии: становление, расцвет, борьба с брахманизмом, закат // Magistra Vitae: электронный журнал по историческим наукам и археологии. № 1. - Москва. 2019. - С. 81.
7. Пьянков. История персии. Ктесия и Среднеазиатские сатрапии ахеменидов в конце V в. до н.э. // Вестник древней истории 2 (92). Москва. 1962. С. 40.
8. Ксенофонт. Анабасис. Перевод Максимова И.М. – Москва-Ленинград: Изд-во АН СССР, 1951. - С. 264.
9. Рамайна. Сказание о Раме. Литературное изложение Тёмкина Э.Н. и Эрмана В.Г. - М., 1986. - С.331.
10. Полибий. Всеобщая история. Перев. Мищенко Ф.Г. – Санкт-Петербург. Изд. Наука. 2005. – С. 157.